
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(1)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 200 sahifa,
2-oktyabr, 2026-yil.

BOŞ MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)
Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)
Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi, Özbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Aşurov Ramzidin Ramazonoviç – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Şoumarov Ğ. B. – Doctor of Psyçological Sciences, Academician
Qirğizboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Persçool and Sçool Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şaripov Ş.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Şermuhammadov B.Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoşev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep Özyurek – Doctor of Psyçological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Ça – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Ş. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Çief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi Özbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Şomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psyçological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Ş.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Teçnical Sciences
Yuldaşeva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldaşeva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Taşkent State University of Economics
Aşurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psyçology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Presçool and Sçool Education of the Kaşkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researçer of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Ta'lim jarayonida deontologik tamoyillar asosida nizolarni boşqariş 10
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Sun'iy intellekt asosida maktab öquvçilarining matematik xatolarini diagnostika qiliş va individual tavsiyalar şakllantirişning gibrid adaptiv modeli 15
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Abdurazzoqova Zebuniso Tolmas qizi

Harbiy xizmatçilarning pedagogik mahoratini oşirişning ilmiy-metodik asoslari 21
Yadgarov Ravşan Ergaşeviç

Inklyuziv ta'limda logopedik texnologiyalardan foydalaniş metodikasi 27
Ikramova Dilafruz Furqat qizi, Ilhomova Malikaxon Dilşod qizi

Faoliyat markazlari vositasida maktabgaça yoşdagi bolalarning raqamli savodxonligini şakllantiriş metodikasi 30
Jo'rayeva Gulira'no Nazirjon qizi

Bölajak tasviriy san'at öqituvçilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirişda an'anaviy naqqoşlik san'atining pedagogik imkoniyatlari 36
Rözmetov Quvondiq Şanazaroviç

Pedagogik hamkorlik asosida ösmir yoşdagi öquvçilarda ijtimoiy voqelikka sezgirlikni tarbiyalaş mexanizmlari 42
Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi

Talabalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini jismoniy madaniyat vositasida rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş 47
Imomov Asliddin Abdurazoqoviç

Harakatli öyinlar yordamida boşlanğiç sinf öquvçilarining harakat faolligini oşiriş usullari 51
Ernazarova Ziyoda Erkin qizi

Sun'iy intellektning inson fikrlaş qobiliyatiga ta'siri: intellektual rivojlaniş uçun imkoniyatlar va tafakkur zaiflaşuvi xavfi 55
Tölaganov Abdumalik Abdiraximoviç

Jadidçilik harakatining vujudga kelişining ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlari 60
Nişonov Muhammad Bahodir öğli, Pulatov Şerdor Nematjonoviç

Maktabgaça ta'lim taşkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirişning nazariy-metodologik asoslari 66
A'zamova Malohat Nadjimovna

Söz yasalişi, morfologiya va sintaksisning özига xos xususiyatlari 70
Bobojanov Şaripboy Xudoşukiroviç

Inklyuziv ta'limda diskriminatsiyani oldini oliş va ularni psixologik qöllab quvvatlaş tamoyillari 74
Bozorova Muxlisa

Neyro logopediya va biometriya 78
Foiqova Diyora Anvar qizi

Bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalaniş 83
Ibrohimova Şahlo Umarali qizi

3–4-sinf öquvçilarining badiiy asarlar öqişga qiziqişini oşirişning metod, şakl va vositalari 88
Rasulova Zohida Sindorovna

Raqamli ta'lim muhitida kasbiy-refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirişning metodik tizimini integratsiyalaş 92
Talabova Dilrabo Tolibova

Informatika va uni öqitiş metodikasi fanini öqitişda adaptiv öquv dasturlari va virtual laboratoriyalardan foydalanişning metodik tizimi 98
Xomidov Zohidjon Adhamjon öğli

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Развитие профессиональной компетентности будущих педагогов в условиях цифровизации образования 104
Шаланков Константин Константинович

Pedagogik loyihalaştiriş orqali öquvçilarning şaxsiy va ijtimoiy rivojlanişini ta'minlaş 109
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyeviç, Nazarova Nilufar Ismailovna

Dual ta'lim va refleksiv kompetensiya: pedagog kasbiy rivojlanişining yangi imkoniyatlari 113
S. R. Mansurova

Bixevioristik yondaşuv futurologik könikmalarni rivojlantiruvçi pedagogik va psixologik omil sifatida 118
Nişonov Nodir Alimjanoviç

Linguoculturological Features of the Concept "Respect And Esteem" in English and Uzbek Cultures 121
Naimova Dildora Kaxramonovna

Klasterli yondaşuv asosida bölajak pedagoglarning forsayt kompetensiyasini rivojlantiriş 125
Sotbarov Atabek Asilbek öğli

Nizolar paydo bölişining psixologik omillari 132
Olimov Saydullo Soxobjonoviç

Matematikadan milliy öquv dasturi loyihasi mazmuni haqida 141
Djumayev Mamanazar Irgaşeviç

Professional Requirements for Prospective English Language Teachers in Teaching Writing to Students With Special Educational Needs 149
D. X. Saydazimova

"Bilingval öquv muhiti" va "kreativ modellaştiriş" tuşunçalarining mazmuni va özaro boğliqligi 154
Djabbarova Feruza Odilovna

Texnologiya darslarida sun'iy intellekt vositalari orqali öquvçilarning ijodiy fikrlaş qobiliyatini rivojlantiriş imkoniyatlari 161
Raxmatov A'zam Aşur öğli, Tursunova Sevara Jamşid qizi

Autistik spektr buzilişli bolalarning luğat boyligini rivojlantiriş va muloqot ko'nikmalarini şakllantiriş metodikasi 165
Tuxtayeva Maxfirat

Maktabgaça tayyorlov yoşdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berişda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalaniş yöllari, şakl va vositalari 170
O'razova Maqsuda Şuhratning qizi

Raqamli hamkorlikda refleksiya va muqobil yeçimlarni yaratişning metodik imkoniyatlari 175
Yusupov Muxtorbek Roximoviç

Multimodal ta'lim texnologiyalari asosida pedagogik kadrlarni tayyorlaşning integrativ ilmiy-metodik tizimi 179
Sultonova Zaxro Baxtiyor qizi

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanişning maktab matematika ta'limidagi imkoniyatlari va çeklovlari 186
Almuratov Shavkat Narpulatovich, Turdiqulova Xulkaroy Anvarovna, Yuldasheva Aziza Azamat qizi, Razzoqova Mahliyo Naimjonovna

Qalbing orom olar maqom eşitsang: özbek milliy mumtoz musiqa san'atining falsafiy, psixo-emotsional va ilmiy-akustik asoslari 192
Ergashxonov Baxodirxon Toxirxon o'g'li

Milliy qadriyatlar asosida bolalarning ijtimoiy moslaşuvini ta'minlaşda maktabgaça ta'lim taşkiloti va oila hamkorligi 197
I. N. Hasanova, Boymirzayeva Nodira Maxmudjon qizi

QALBING OROM OLAR MAQOM EŞITSANG: ÖZBEK MILLIY MUMTOZ MUSIQA SAN'ATINING FALSAFIY, PSIXO-EMOTSIONAL VA ILMIY-AKUSTIK ASOSLARI

Ergashxonov Baxodirxon Toxirxon o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti,
Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 1-bosqiç magistranti

Annotatsiya: Maqolada özbek milliy mumtoz musiqa san'atining falsafiy-estetik mazmuni, maqom tinglaşdagi psixoemotsional keçinmalar hamda musiqiy tovüşning akustik xususiyatlari özaro aloqadorlikda tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi maqomning orombaxş idrok etilişini musiqiy tuzilma, ijro talqini, tinglovçi tajribasi va tinglaş vaziyati birligi asosida nazariy izohlaşdir. Özbek musiqaşunosligi va musiqa psixologiyasiga oid manbalar, xalqaro meros tavsifi hamda musiqiy emotsiya va stressga doir tadqiqotlar tanqidiy-qiyosiy tahlil qilindi. Maqomning lad-ohang taşkiloti, usuli, şakliy rivoji, tembri va şe'riy mazmuni tinglovçining madaniy tajribasi bilan boğlab şarhlandi. Umumiy musiqa tadqiqotlarining natijalarini maqomga tatbiq etiş çegaralari belgilandi. Maqom ta'sirini örganişga möljallangan konseptual model va empirik tekşiruv yönalişlari taklif etildi. Natijalar nazariy-tahliliy xususiyatga ega; maqomning maxsus fiziologik yoki klinik samarasi uşbu tadqiqotda ölçanmagan.

Kalit sözlar: maqom, Şaşmaqom, mumtoz musiqa, falsafiy-estetik mazmun, psixoemotsional keçinma, musiqiy akustika, usul, tembr, musiqiy idrok, madaniy xotira.

Abstract: The article examines the interrelationships between the philosophical and aesthetic meaning of Uzbek national classical music, psycho-emotional experiences of listening to maqom, and the acoustic properties of musical sound. The study aims to explain the perception of maqom as calming through the interaction of musical structure, performance interpretation, listener experience and listening context. Uzbek musicological and psychological sources, an international heritage description, and research on musical emotion and stress were examined through critical comparative analysis. Modal and melodic organization, usul, formal development, timbre and poetic content are interpreted in relation to the listener's cultural experience. The limits of applying findings from general music research to maqom are identified. A conceptual model and directions for empirical investigation are proposed. The findings are theoretical and analytical; no maqom-specific physiological or clinical effects were measured in this study.

Key words: maqom, Shashmaqom, classical music, philosophical and aesthetic meaning, psycho-emotional experience, musical acoustics, usul, timbre, music perception, cultural memory.

Аннотация: В статье во взаимосвязи рассматриваются философско-эстетическое содержание узбекской национальной классической музыки, психоэмоциональные переживания при слушании макома и акустические характеристики музыкального звука. Цель исследования – теоретически объяснить успокаивающее восприятие макома через единство музыкальной структуры, исполнительской интерпретации, опыта слушателя и ситуации слушания. Проведён критико-сравнительный анализ узбекских музыковедческих и психологических источников, международного описания культурного наследия и исследований музыкальных эмоций и стресса. Ладово-мелодическая организация, усуль, форма, тембр и поэтическое содержание макома рассматриваются в связи с культурным опытом слушателя. Определены границы переноса результатов общих музыкальных исследований на маком. Предложены концептуальная модель и направления эмпирической проверки. Результаты имеют теоретико-аналитический характер; специфические физиологические или клинические эффекты макома в данном исследовании не измерялись.

Ключевые слова: маком, Шашмаком, классическая музыка, философско-эстетическое содержание, психоэмоциональное переживание, музыкальная акустика, усуль, тембр, музыкальное восприятие, культурная память.

KIRIŞ

Özbek milliy mumtoz musiqasi insonning badiiy tafakkuri, tarixiy xotirasi va hissiy tajribasini birlaştiradigan madaniy hodisadir. Maqomni tinglaşda kuy va ritm bilan birga ijroçining ovozi, şe'riy matn, taniş ohangga munosabat hamda tinglaş şaroiti ham keçinmaning şakllanişida iştirok etadi. Şu sababli maqomning ma'naviy qiymatini faqat tovüşning fizik xususiyatiga yoki tinglovçining umumiy kayfiyatiga boğlab tuşuntiriş uning murakkab tabiatini töliq oçib bermaydi.

"Qalbing orom olar maqom eşitsang" iborasi maqomning estetik qabul qilinişini ifodalovçi badiiy tezis sifatida qaralişi mumkin. Ilmiy tadqiqotda esa "orom" tuşunçasining mazmunini aniqlaştiriş talab etiladi. U sokinlik, diqqatning jamlanişi, içki mutanosiblik yoki ma'noli keçinmadan qoniqiş holatini anglatişi mumkin. Uşbu holatlar özaro yaqin bölsa-da, ularning har biri alohida örganiş mezoniga ega. UNESCO tavsifida Şaşmaqom vokal va çolğu musiqasi, ohangiy-ritmik vositalar hamda şe'riyatning uyğunligi sifatida yoritiladi [1]. Mazkur ta'rif maqomga bir vaqtning özida badiiy tuzilma va madaniy amaliyot sifatida yondaşiş zarurligini körsatadi. Uning psixoemotsional ta'sirini tahlil qilişda ham musiqiy material bilan tinglovçi örtasidagi munosabat markaziy örinda turişi kerak.

Tadqiqotning maqsadi maqomning falsafiy-estetik mazmuni, psixoemotsional idroki va akustik xususiyatlarini birgalikda tahlil qiliş hamda orombaxş keçinmaning yuzaga kelişi uçun nazariy tuşuntiriş taklif etişdir. Asosiy savol quyidagiça belgilandi: maqomning tuzilişi va ijro xususiyatlari tinglovçining madaniy tajribasi hamda tinglaş vaziyati bilan qanday boğlanadi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Maqomni örganişning musiqaşunoslik yönalişi asarning lad, usul, şakl va ijro an'analarini izohlaydi. O. Ibrohimovning "Maqom asoslari" qöllanmasida Buxoro Şaşmaqomi, Xorazm maqomlari va Farğona–Toşkent maqom yöllari tarixiy-nazariy jihatdan yoritiladi [2]. Uşbu yondaşuv maqom tuşunçasini yagona kuy yoki barça maktablar uçun bir xil şakl bilan tenglaştirişdan saqlaydi.

R. Ğ. Qodirovning musiqa psixologiyasiga oid qöllanmasida musiqiy idrok yaxlit faoliyat sifatida talqin qilinib, uning tinglovçi tayyorgarligi va tajribasi bilan aloqasi körsatiladi [3]. Bu qaraş maqom ta'sirini asarning özida oldindan belgilangan, tinglovçidan mustaqil xususiyat deb qabul qiliş örniga, uni idrok jarayonidagi munosabat sifatida tadqiq etişga asos beradi. Tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan Abu Nasr Forobiyning musiqa nazariyasi muhim örin tutadi.

T.-A. Druart şarhida Forobiy musiqani matematik ilmlar doirasida örganişi bilan birga, ijro amaliyoti va eşitiş tajribasiga tayanganligi qayd etiladi [4]. Şunday qilib, tarixiy nazariyada nisbat va tartibga e'tibor amaliy idrokni inkor qilmaydi. Biroq örta asr musiqiy qaraşlarini bugungi Şaşmaqomning barça şakllari yoki zamonaviy neyrofiziologik ölçovlar bilan aynanlaştiriş tarixiy kontekstni buzadi.

P. N. Juslin va D. Västfjäll musiqiy emotsiyalarni tuşuntirişda turli mexanizmlarni, jumladan, hissiy yuqum, obrazli tasavvur, epizodik xotira va musiqiy kutilmani farqlaş zarurligini asoslaydi [6].

S. Koelsch esa musiqiy emotsiyalarni miya faoliyati bilan boğlaydigan tadqiqotlarni umumlaştiradi [7]. Bu işlar bir-birini töldiradi: biri keçinma yuzaga keliş yollarini, ikkinçisi uning neyrobiologik aloqalarini yoritadi.

M. V. Thoma va hammualliflarning tajribasi hamda M. de Witte va hammualliflarning meta-tahlili musiqa va stress munosabatini turli darajada örganadi [9; 10]. Ularni maqomşunoslik manbalari bilan qiyoslaşda dalil darajalari ajratilişi lozim. Tarixiy-estetik tavsif asarning madaniy ma'nosini tuşuntiradi, eksperiment muayyan şaroitdagi özgarişni tekşiradi, meta-tahlil esa bir neçta tadqiqot natijasini birlaştiradi. Bir darajadagi xulosa boşqa darajadagi dalil örnini bosa olmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola maqsadli manbalar tanloviga asoslangan nazariy-tahliliy tadqiqotdir. Manbalar maqom tuzilişi va madaniy maqomi, musiqiy idrok, falsafiy talqin, tovüş akustikasi hamda musiqiy emotsiya masalalariga aloqadorligi böyiça saralandi. Bibliografik tekşiruvda ilmiy naşrlar, mualliflik tadqiqotlari va rasmiy meros tavsifiga ustuvorlik berildi. Uşbu tanlov barça adabiyotlarni qamrab olgan sistematik şarh hisoblanmaydi.

Tahlilda tuşunçalarni aniqlaştiriş, yondaşuvlarni qiyoslaş va konseptual modellaştiriş usullaridan foydalanildi. "Orom" badiiy-estetik tajribani tavsiflovçi tuşunça sifatida, "stressning kamayişi" esa maxsus ölçovni talab qiladigan natija sifatida farqlandi. Maqomga oid bevosita musiqaşunoslik dalillari umumiy musiqa tadqiqotlaridan olinadigan nazariy imkoniyatlardan ajratildi.

Tadqiqotda audioyozuvning spektral tahlili, tinglovçilar sörovi, elektrofiziologik ölçov yoki klinik tajriba ötkazilmadi. Şuning uçun quyida keltirilgan psixoemotsional model tekşirilişi lozim bölgan nazariy taklif sifatida bayon etiladi. Uning vazifasi maqomning oldindan kafolatlangan ta'sirini e'lon qiliş emas, keyingi kuzatiş va tajribalar uçun tuşuntiriş mezonlarini belgilaşdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqomning falsafiy ahamiyati insonning vaqt, keçinma va ma'no bilan munosabatini badiiy şaklda taşkil etişida namoyon böladi. Tinglovçi ohang rivojini kuzatar ekan, avvalgi musiqiy voqeani eslab qoladi, keyingi davomni kutadi va yangi tovuşni butunlik tarkibida anglaydi. Mazkur jarayonda tinglaş taşqi tovuşni qabul qilişdan içki muşohadaga ötişi mumkin. Bu maqomni falsafiy talqin qiliş imkoniyatidir; u har bir tinglovçida bir xil holat yuzaga kelişini anglatmaydi.

Forobiy haqidagi ilmiy şarhda nazariy nisbat bilan eşitiş amaliyotining birgalikda körilişi alohida ahamiyat kasb etadi [4]. Uşbu metodologik fikr hozirgi tahlil uçun ham samarali: musiqadagi tartibni faqat raqamli nisbat bilan ifodalaş badiiy mazmunni töliq tuşuntirmaydi, faqat hissiy ta'rif esa tuzilmaning özini oçib bermaydi. Falsafiy va akustik yondaşuvlar öz savollarini saqlagan holda bir-birini boyitişi mumkin.

Aşula yollarida şe'riy mazmun musiqiy rivojga qöşimça semantik qatlam beradi. Muhabbat, ayriliq, insoniy kamolot va muşohada kabi mavzularning tinglovçi tomonidan anglanişi uning til bilimi hamda madaniy tayyorgarligiga boğliq. Matn mazmunini tuşuniş bilan ovozdagi ifodani his qiliş özaro boğlanadi, ammo ular bir xil jarayon emas. Şe'r tilini töliq bilmagan tinglovçi ham ijrodagi ifodani sezişi mumkin; matnni anglaş esa keçinmaga yangi ma'no qöşadi.

Maqomdagi ğamginlikni faqat salbiy holat deb baholaş ham yetarli emas. Badiiy keçinmaning qadrli bölişi uning doimo quvonçli mazmunga ega ekanini talab qilmaydi. Tinglovçi iztirob ifodasida öz tajribasiga yaqin ma'no topişi, musiqiy rivojning yaxlitligidan qoniqişi mumkin. Şu talqinda "orom" hissiyotning yöqolişini emas, keçinmani anglaş va tartibga soliş imkoniyatini bildiradi.

Şaşmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlarini birlaştiradi. Uning çolğu bölimi Muşkilot, aşula bölimi Nasr nomi bilan yuritiladi. Muşkilot tarkibida Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil kabi qismlar örganiladi; ayrim qismlarning mavjudligi va variantlari maqomga qarab farqlanadi [2]. Şu sababli butun turkumni faqat sekin yoki bir xil kayfiyatdagi musiqa sifatida tasvirlaş uning içki rang-barangligini çeklaydi.

Xona va bozğöy munosabati rivojlaniş bilan qaytişning uyğunligini körsatadi. Aşula yollaridagi daromad, miyonxat, avj va tuşirim kabi tuzilmalar ham musiqiy harakatning turli vazifalarini bajaradi; ularning muayyan namoyon bölişi asarga boğliq [2]. Uşbu tuzilmalar tinglovçi keçinmasini örganişda tahliliy tayanç bölişi mumkin. Masalan, taniş ohangning qaytişi yoki avjdan keyingi yakunlaniş qanday qabul qilinişi alohida tekşiriladigan savoldir.

Usulni oddiy metronom urişi bilan tenglaştiriş maqsadga muvofiq emas. U vaqtni taşkil etuvçi ritmik tuzilma sifatida ohangiy rivoj bilan birga eşitiladi. Tahlilda sur'atning tezligi bilan usulning tuzilişini ajratiş zarur: bir xil tezlikda yangragan ikki parça ritmik taşkiloti jihatidan farqlanişi mumkin. Şuning uçun psixoemotsional ta'sirni faqat "sekin musiqa tinçlantiradi" formulasi bilan tuşuntiriş yetarli bölmaydi.

Musiqiy akustika tovuşning hosil bölişi, tarqalişi va fizik xususiyatlarini örganadi. N. H. Fletcher va T. D. Rossing musiqiy çolğular fizikasini tebraniş, rezonans va tovuş hosil qiliş mexanizmlari bilan boğlab yoritadi [5]. Maqom ijrosini uşbu nuqtayi nazardan örganişda asosiy çastota, spektr tarkibi, tovuşning boşlanişi va sönişi, intensivlik hamda vaqt böyiça özgarişlar tahlil qilinişi mumkin. Çastota, tovuş balandligi va tembr tuşunçalari özaro aloqador, ammo aynan bir hodisa emas. Tonal tovuşda asosiy çastota balandlik idrokining muhim omili bölsa, tembr spektr va vaqt böyiça rivojlaniş xususiyatlari bilan ham boğliq. Ovoz yoki çolğu yozuvida kuzatilgan akustik belgi hali tinglovçining emotsional javobini ifodalamaydi. Buning uçun tovuş ölçovi bilan idrok haqidagi ma'lumot alohida olinib, ular örtasidagi boğlaniş tekşirilişi kerak.

Ijro yozuvini örganişda lad taşkilotini oddiy çastotalar röyxatiga qisqartiriş ham metodik jihatdan çeklangan. Pardaning badiiy vazifasi uning kuy içidagi tayançligi, davomiyligi va boşqa pardalar bilan munosabatida namoyon böladi. Demak, akustik tavsif musiqiy-funksional tahlil bilan töldirilgandagina asarning tuzilişi haqida mazmunli xulosa çiqariş imkoniyati kengayadi.

"Maqom çastotasi miya ritmiga teng" kabi fikr esa ölçov obyektlarini çalkaştiradi. Audioyozuvdagi tovuş tebranişi bilan elektroensefalografiyada qayd etiladigan miya faolligi turli hodisalardir. Ularni bir xil birlikda ifodalaş sababiy boğlanişni öz-özidan isbotlamaydi. Maqom tinglaşda alfa faolligi özgarişi haqida xulosa çiqariş uçun tegişli tajriba, nazorat şaroiti va EEG ma'lumotlari talab etiladi. Maqomga xos akustik tadqiqotning amaliy vazifasi avval muayyan ijroni aniq tavsiflaşdan boşlanişi kerak. Bir asarning turli ijrolarida fraza davomiyligi, tovuşning kuçayişi, bezaklar va ohang yönalişi taqqoslanişi mumkin. Bunda mikrofon, yozuv sifati, montaj va ovoz balandligi farqlari hisobga olinadi. Aks holda, texnik yozuv xususiyati ijroçilik yoki maqomning özига tegişli belgi sifatida notöğri talqin qilinişi mumkin.

Juslin va Västfjäll taklif etgan yondaşuv maqom tinglaşdagi individual farqlarni tuşuntiriş uçun nazariy imkoniyat beradi [6]. Taniş kuy avvalgi voqea bilan boğlangan xotirani uyğotişi, ifodali ijro hissiy yuqumga xizmat qilişi, davomni kutiş esa diqqatni musiqiy rivojga jalb etişi mumkin. Mazkur mexanizmlar aynan maqom tinglovçilarida qay darajada işlaşi alohida tadqiqot masalasidir.

Madaniy tajriba uşbu jarayonda faqat "asarni biliş" bilan çeklanmaydi. Oilaviy tinglaş muhiti, ijroçiga munosabat, şe'riy matnni anglaş va muayyan marosimga oid xotira ham keçinmaga ta'sir qilişi mumkin. Şu bois bir tinglovçiga osoyiştalik bergan ijro boşqasiga soğ inç yoki kuçli hayajon bağişlaşi ehtimoli bor. Bunday farq asarning badiiy qiymatini kamaytirmaydi, balki ta'sirning munosabatli tabiatini körsatadi.

Qodirov yoritgan yaxlit musiqiy idrok tamoyili bu yerda muhim: kuy, ritm va tembr umumiy obraz tarkibida qabul qilinadi [3]. Tahlilda alohida unsur ajratilişi mumkin, lekin tinglaş tajribasi ularning qöşilişidan hosil böladi. Şu sababli bitta belgi, masalan, vazmin sur'atni butun psixoemotsional natijaning yagona sababi deb belgilaş ilmiy tuşuntirişni soddalaştiradi.

Koelsch şarhida musiqiy emotsiyalar hissiyot va mukofot jarayonlarida iştirok etadigan miya tuzilmalari bilan boğlanadi [7]. Bu natijalar musiqa idrokining biologik asoslari borligini körsatadi, ammo ayrim maqom nomiga özgarmas neyrofiziologik vazifa yuklaşga asos bermaydi. "Rost doimo tinçlantiradi" yoki "Navo ma'lum kasallikni davolaydi" kabi qat'iy xulosalar uçun aynan şu material va natijani tekşirgan dalil kerak.

V. N. Salimpoor va hammualliflar kuçli musiqiy zavqning dopamin ajralişi bilan aloqasini maxsus neyrotasvirlaş usullari orqali örgangan [8]. Tadqiqotdagi zavq va kutilma jarayonlarini barça tinglaş holatlariga köçiriş mumkin emas. Maqomning badiiy qadrini tuşuntirişda bu iş umumiy mexanizm ehtimolini körsatadi, ammo har bir ijroda dopamin ortişi ölçangan degan xulosani bermaydi.

De Witte va hammualliflar meta-tahlilida musiqiy aralaşuvlarning stressga oid fiziologik hamda psixologik natijalarga umumiy ijobiy ta'siri qayd etilgan [10]. Biroq birlaştirilgan tadqiqotlarda material, iştirokçilar va vaziyatlar turliça. Umumiy natija maqomni istiqbolli tadqiqot obyekti sifatida körişga imkon beradi; u maqomning alohida klinik samaradorligini tasdiqlovçi bevosita dalil böla olmaydi.

Uşbu ikki manbani qiyoslaş umumiy tendensiya bilan alohida tajriba natijasi örtasidagi farqni oçadi. Inson özini xotirjam sezişi, diqqatini jamlaşi va ayrim fiziologik körsatkiçlarida özgariş yuz berişi özaro aloqador bölişi mumkin, ammo ular bir-birining örnini bosmaydi. Şuning uçun "orom"ni örganişda subyektiv keçinma, xulqiy körsatkiç va fiziologik ölçovlar alohida talqin qilinişi zarur.

Tahlil asosida maqom idrokini musiqiy tuzilma, ijro talqini, tinglovçi tajribasi va tinglaş vaziyati örtasidagi özaro aloqa sifatida örganiş taklif etiladi. Tuzilma lad-ohang, usul va şaklni; ijro talqini frazalaş, ovoz ifodasi va dinamikani; tinglovçi tajribasi tanişlik, did va matnni anglaşni; vaziyat esa tinglaş maqsadi, muhit va diqqat şaroitini qamrab oladi. Mazkur model mualliflik nazariy taklifidir. Modelga köra, maqom ta'siri haqida xulosa çiqariş uçun faqat asar nomini körsatiş yetarli emas. Qaysi qism, kimning ijrosi, qança davomiylikda, qanday ovoz balandligida va qanday tinglovçi uçun qöllangani aniqlaştiriladi. Bir maqomning turli qismlari hamda bir asarning turli ijrolari alohida tekşirilişi mumkin. Bu talab badiiy materialni tajriba şaroitida aniq tavsiflaşga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotda maqom parçalarini davomiyligi va ovoz balandligi imkon qadar mos boşqa musiqiy material hamda sokin şaroit bilan qiyoslaş mumkin. Tinglaş tartibini tasodifiylaştiriş yoki muvozanatlaştiriş, dastlabki kayfiyat, tanişlik va şaxsiy didni qayd etiş natijani tuşuntirişni yaxşilaydi. Tanlanma hajmi oldindan asoslanişi, ölçov vositalarining işonçliligi esa maqsadli guruhda tekşirilişi lozim.

Ta'lim jarayonida model maqomning badiiy mazmunini anglaşga yönaltirilişi mumkin. Talabalar tanlangan parçada usul, ohangiy qaytiş va avjning vazifasini kuzatib, şe'riy matnni izohlaydi, keyin öz keçinmasini musiqiy kuzatiş bilan boğlaydi. Bunday maşğulotning bevosita natijasi musiqiy tuşuniş va asoslangan talqindir. Uning tibbiy ta'siri haqida xulosa çiqariş esa pedagogik topşiriq doirasidan taşqaridagi maxsus tadqiqotni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Özbek milliy mumtoz musiqa san'atining orombaxş idrok etilişi falsafiy mazmun, musiqiy taşkilot, ijro xususiyati va tinglovçi tajribasining özaro munosabati orqali tuşuntirilişi mumkin. Maqomdagi badiiy tartib faqat tovuşning fizik xossasi bilan çeklanmaydi; u madaniy xotira, şe'riy ma'no va musiqiy vaqtni anglaş jarayonida mazmun kasb etadi.

Manbalar qiyosi musiqaning psixoemotsional imkoniyatlarini örganiş uçun ilmiy asoslar mavjudligini körsatdi. Şu bilan birga, umumiy musiqa tadqiqotlaridagi natijalar aynan maqomga oid bevosita ölçov örnini bosa olmaydi. Akustik belgi, subyektiv keçinma va fiziologik natijani farqlaş maqom haqidagi ilmiy mulohazaning aniqligini ta'minlaydi.

Taklif etilgan konseptual model maqomni musiqiy tuzilma, ijro, tinglovçi va vaziyat birligida örganişga xizmat qiladi. Uning asosida maqomning estetik qabul qilinişi, madaniy tanişlikning roli hamda keçinmalardagi individual farqlarni empirik tekşiriş mumkin. Maqolaning natijalari nazariy-tahliliy xususiyatga ega bölib, maxsus fiziologik yoki klinik samaradorlikni isbotlaşga da'vo qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. UNESCO. Shashmaqom music. Intangible Cultural Heritage.
2. Ibrohimov O.A. Maqom asoslari: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2018.
3. Qodirov R.G‘. Musiqa psixologiyasi (ma’ruzalar kursi): o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Musiqa, 2005. 80 b.
4. Druart T.-A. al-Farabi. The Stanford Encyclopedia of Philosophy. 2016; mazmunan yangilangan: 2024.
5. Fletcher N.H., Rossing T.D. The Physics of Musical Instruments. 2nd ed. New York: Springer, 1998.
6. Juslin P.N., Västfjäll D. Emotional responses to music: The need to consider underlying mechanisms. Behavioral and Brain Sciences. 2008. Vol. 31, No. 5. P. 559-575.
7. Koelsch S. Brain correlates of music-evoked emotions. Nature Reviews Neuroscience. 2014. Vol. 15, No. 3. P. 170-180.
8. Salimpoor V.N., Benovoy M., Larcher K., Dagher A., Zatorre R.J. Anatomically distinct dopamine release during anticipation and experience of peak emotion to music. Nature Neuroscience. 2011. Vol. 14, No. 2. P. 257-262.
9. Thoma M.V., La Marca R., Brönnimann R., Finkel L., Ehlert U., Nater U.M. The Effect of Music on the Human Stress Response. PLOS ONE. 2013. Vol. 8, No. 8. e70156.
10. de Witte M., Spruit A., van Hooren S., Moonen X., Stams G.-J. Effects of music interventions on stress-related outcomes: a systematic review and two meta-analyses. Health Psychology Review. 2020. Vol. 14, No. 2. P. 294-324.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(1)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.